

СОСТОЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ СТРУКТУРЫ ЛИЧНОСТИ В ПСИХОАНАЛИЗЕ

Арабов Исхок

докторант Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация

До сих пор в психологической науке нет единой точки зрения о природе, структуре и законах развития личности. Но не будет ошибкой сказать, что школа психоанализа, основателем которой был З. Фрейд, была первой из психологических теорий, выдвинувших научный подход к личности и ее структуре. В данной статье описаны подходы к личности и ее структуре с позиций психоаналитической теории.

Ключевые слова: Психоаналитика, психоанализ, личность, структура, ид, эго, суперэго.

Introduction

Avvalambor, “Psixoanalitika” va “Psixoanaliz” atamasi haqida to‘xtalib o‘tsak. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan “Psixoanaliz” termini ikkita qabul qilingan ma’noga ega: Birinchidan, bu Freyd tomonidan ongning chuqur qatlamlarini o‘rganish texnikasi orqali ma’lum asab kasalliklarini davolash uchun ishlab chiqilgan davolash usulini anglatadi. Ikkinchidan, u “Psixoanalistik terapiya”dan foydalanish natijasida o‘sib-ulg‘aygan va o‘zini bir qator muhim va tizimlashtirilgan nazariyalarga aylantirgan tizim yoki psixologiya maktabini ifodalaydi.

Zigmund Freydning psixoanalitik nazariyasi uch qismga bo‘lingan, ya’ni, **Psixikaning tuzilishi**, unga *Topografik model va *Strukturaviy model, **Instinktlar va Libido nazariyasi** va **Psixo-jinsiy rivojlanish nazariyasi** kiradi.

Psixika yoki ongning tuzilishi: Freyd, inson psixikasi yoki ongining tuzilishini tushuntirar ekan, uni ikki xil qismga ajratadi: birinchisi, ong, ongdan oldingi yoki ong osti va ongsizlik deb uni 3 ta qatlamga ajratadi. Ikkinchidan, boshqa uchta boshqa komponentni gipoteza qilish orqali – ya’ni, “Id”, “Ego” va “Superego”ga ajratadi.

a) Ong, ongdan oldingi va ongsiz(lik holatlari) (topografik model): Freyd inson ongi (aqli)ni aysbergga qiyoslagan.

1). Suv yuzasida ko‘rinadigan kichik qism ongdan – bizning ongimizdan va “ong oldi”dan iborat bo‘lib, hozirda “ongimizda” bo‘lmagan, ammo biz buni talab qilsak, ongga keltira oladigan barcha ma’lumotlardan iborat. (Masalan, Amerika Prezidentining ismi). Bizning fikrlarimiz va xatti-harakatlarimizga ta’sir qiladigan impulslar, istaklar va erishib bo‘lmaydigan xotiralar omborining ancha katta massasi.


“Anglovchi ong”: U xuddi aysbergning yuqori qismi kabi suv yuzasida joylashgan va bizning umumiyligi aqliy hayotimizning o‘ndan bir qismini egallaydi. Bizning aqliy hayotimizning har qanday daqiqasida biz biladigan g‘oyalar, fikrlar va tasvirlar ongimizning ushbu yuqori qatlamida joylashganligi aytiladi.

“Ong oldi”: Ongli qatlam ostida ongdan oldingi yoki ongsiz (ong holati) bo‘ladi. Ongimizning bu o‘rta qismida barcha turdag'i ma'lumotlar ong yuzasi ostida saqlanadi va kerak bo‘lganda darhol ong darajasiga osongina yetkaziladi. Shunday qilib, inson ongingin o‘rta qatlamida har xil turdag'i tajriba yoki mashg‘ulotlar orqali shaxs tomonidan olingan yoki o‘rganilgan barcha tajriba va bilimlar joylashgan bo‘ladi.

Ongsizlik (holati): “Ong oldi”ga yaqin joylashgan qatlam bo‘lib, “ong”imizning muhim qismi hisoblanadi. Bu (qism yoki qatlam) yashirin va odatda ongga yetib bo‘lmaydigan ruhiy hayotimizning katta qismi bilan bog‘liq bo‘ladi.

U barcha jilovlangan orzu-istiklar, his-tuyg‘ular, harakat va motivlarni o‘z ichiga oladi, ularning aksariyati odatda jinsiy aloqa va tajovuz bilan bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu cheklangan va taqiqlangan istak va g‘oyalarning barchasi – ongsizlik (holati yoki bosqichi)da doimiy ravishda yotish uchun mo‘ljallanmagan. Ular odatda bevosita ongning o‘ziga yoki “ong oldi” qatlamlariga, ba’zan yashirin shaklda, uyqu va tushlarda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, “ongsizlik”ga tegishli bo‘lgan ruhiy hayotning bu yashirin xazinasi bizning xatti-harakatlarimizning aksariyati uchun javobgardir. Va aslida Freyd ta’kidlaganidek: “Biz nima qilishimiz va o‘zimizni qanday tutishimiz har doim (ham) ongli tanlovlardan bilan emas, balki bizning ongimizdagи kuchlar bilan belgilanadi”.

b) “Id”, “ego” va “superego” tushunchasi (Strukturaviy model): Freyd o‘zining “Topografik modeli” ya’ni, ong, ong oldi va ongsizlik (holati) tushunchasi inson shaxsini tasvirlash uchun juda oddiy (primitiv) ekanligini aniqladi va u “Strukturaviy model”ni ishlab chiqishga kirishdi. Aniqroq aytganda, u shaxsni – inson xatti-harakatlarini boshqarish uchun o‘zarotasir qiluvchi uchta psixik apparatga ajratdi (ular): “Id”, “Ego” va “Superego”.



1

Z.Freydnинг shaxs tuzilishiga oid “Strukturaviy model”i.

¹ Freud’s levels and structures of personality. SOURCE: From Psychology: Themes and Variations, 2nd ed., by W. Weiten, p. 428, Brooks/Cole Publishing Co., 1992.

Psixikaning ushbu modeliga ko‘ra, “Id” – bu muvofiqlashtirilmagan instinktiv tendensiyalar to‘plami hisoblansa, “Super-ego” esa tanqidiy va axloqiy rol o‘ynaydi. “Ego” esa “Id” va “Super-ego” istaklari o‘rtasida vositachilik qiluvchi uyushgan, realistik qism sanaladi. “Superego” shaxsni “id” bajarishni xohlaydigan ba’zi narsalarni amalga oshirishiga to‘sinqinlik qilishi mumkin.

Demak, “Psixoanaliz”ga ko‘ra shaxs strukturasi 3 qismdan iborat:

“**Id**” – insoniy xohish-istiklar, mayllarni o‘z ichiga oladi. Freyd ularni “Eros” va “Tanatos”, “Libido” va o‘limnga bo‘lgan o‘ta kuchli istakning namoyon bo‘lishiga ajratadi². Aslida “Id” – Freydning ongsizlik haqidagi oldingi g‘oyasi (yoki ta’limoti)ga mos keladi (shuningdek, “ego” va “superego”ning ham ongsizlik holatiga tegishli joylari bor). Shuningdek, “Id” – instinktlar va “libido”³ uchun ombor vazifasini o‘taydi. “Id” – shaxsning o‘ta kuchli strukturasidir. Chunki aynan u – boshqa ikkita komponent uchun barcha energiyani ta’minlab beradi. “Id” instinktlar ombori bo‘lgani sababli, u hayot uchun muhim ahamiyatga ega va qolaversa, u – jismning ehtiyojlarini qondirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. “Id” – Freyd “zavq” (yoki qoniqish va mammuniyat) tamoyili deb atagan narsaga muvofiq, taranglik (yoki ziddiyat)ni kamaytirish bilan bog‘liq holda, zavqni oshirish va og‘riqdan ochish uchun ishlaydi. “Id” o‘z ehtiyojlarini darhol qondirishga intiladi. Biror sababga ko‘ra (ehtiyojlarni) qondirishning kechikishi yoki kechiktirilishiga rozi bo‘lmaydi. U faqat bir zumda (yoki tezda, darhol) qoniqish hosil qilishni biladi. U bizni – o‘zimiz xohlayotgan narsani, uni ayni istagan vaqtimizda – boshqalarning xohish-istagi (gap-so‘zi yoki e’tirozi)ga e’tibor bermasdan xohlashga undaydi.

“**Id**” – bu (o‘ta) xudbin, huzr-halovat (lazzatlanish)ga moyil, primitiv, axloqsiz, talabchan (yoki qat’iy turib oladigan) va sira o‘ylamasdan ish qiluvchi strukturadir. “Id”da reallikni anglash (yoki reallik bilan hisoblashish) qobiliyati yo‘q. Biz “id”ni – ehtiyojlar qondirilmaganda yig‘lab, mushtlarini silkitadigan, lekin qanday qilib mazkur ehtiyojlar qondirishni bilmaydigan – yangi tug‘ilgan chaqaloqqa qiyoslashimiz mumkin. Och qolgan go‘dak o‘zi (mustaqil) ovqat topa olmaydi. “Id” o‘z ehtiyojlarini qondirishning yagona yo‘li – bu refleksli harakatlar va istaklarni amalga oshiradigan gallyusinatsiya yoki xayoliy tajribalardir. Freyd buni **asosiy fikrlash jarayoni** deb atagan.

“**Ego**” – ongsizlikning ikkita qarama-qarshi energiyasi – “id” va “superego”ning o‘rtasida turuvchi strukturadir. Freydning fikricha, barkamol shaxs bu ikki tamoyilni mohirlik bilan uyg‘unlashtirishi, boshqara olishi kerak. Agar, tomonlarning birida nomuvofiqlik kuzatilsa, shaxsda bu og‘ishlarga va hatto patologiyalarga ham olib kelishi mumkin.

Aksariyat bolalar, agar ular oqibatlarini boshdan kechirishga tayyor bo‘lmasalar, boshqa odamlardan ovqat ololmasligini, “anal” taranglikni bartaraf etishdan olingan zavqni hojatxonaga borguncha kechiktirishlari kerakligini va jinsiy va tajovuzkor intilishlarni befarq

² Z.Freydga ko‘ra, “Libido” – hayot va o‘limnga bo‘lgan mayl (intilish)ni ifodalaydi va ularning hammasi o‘zaro bog‘langandir. Z.Freyd – har bir insonda ikkita mayl (yoki xohish-istik): o‘lim va hayotga bo‘lgan intilish yetakchilik qiladi, deb aniq ishongan. U bu qarama-qarshi instinktlarni “eros” va “tanatos” deb atagan. “Eros” – zavq va hayotga bo‘lgan intilishni ifodalab, rivojlanishga qaratilgan bo‘ladi. “Tanatos” esa – o‘limnga bo‘lgan intilish (mayl)ni ifoda etadi va u halokatga qaratilgan bo‘ladi.

³ instinktlar tomonidan namoyon bo‘ladigan ruhiy energiya.

qoldira olmasligini bilib olishadi. O'sayotgan bola tashqi dunyo bilan oqilona va realistik munosabatda bo'lishga, idrok etish, tan olish, mulohaza yuritish va xotira qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatiladi. Freyd bu qobiliyatlarni **ikkinchi darajali fikrlash jarayoni** deb atagan.

Biz bu xususiyatlarni aql yoki ratsionallik sifatida umumlashtirishimiz mumkin va ular Freydning shaxsiyatning ikkinchi tuzilmasida – shaxsning oqilona ustasi bo'lgan "ego"da mavjud. Reallikdan xabardor bo'lganligi sababli, "ego" "id" instinktlarini qachon va qanday qilib eng yaxshi qondirish mumkinligini hal qiladi. U "id" impulslarini qondiradigan tegishli va ijtimoiy jihatdan maqbul vaqtlnarni, joylarni va obyektlarni belgilaydi. "Ego" "id"ni qondirishga xalaqit bermaydi. Aksincha, u voqelik talablari nuqtai nazaridan uni kechiktirishga (keyinga surishga) yoki qayta yo'naltirishga harakat qiladi. U atrof-muhitni amaliy va real tarzda idrok etadi va boshqaradi. Shuning uchun ham "ego" voqelik (yoki reallik) prinsipiga muvofiq ishlaydi. (Voqe'lik prinsipi "id" ishlaydigan "zavq" (yoki mammuniyat) prinsipiga qarama-qarshidir.) Shunday qilib, "ego" "id" impulslarini nazorat qiladi. Freyd "ego" va "id" munosabatlarini ot ustidagi chavandoz bilan solishtirgan. Otning o'ta kuchli shafqatsiz kuchi chavandoz tomonidan boshqarilishi, tekshirilishi va jilovlanishi kerak; aks holda ot chavandozni yerga uloqtirib, yugurib ketishi mumkin. "Ego" ikki xo'jayinga – "id" va voqe'likga xizmat qiladi va ularning qarama-qarshi talablari o'rtasida doimo vositachilik qiladi va murosaga keladi. Bundan tashqari, "ego" hech qachon "id" dan (to'la) mustaqil emas. "Ego" har doim "id" talablariga javob berishga majbur hamda o'z kuchi va energiyasini "id"dan oladi.

Aynan "ego" ratsional (oqil va mohir) nazoratchidir. Negaki, u agar muqobil yo'l oilangizni oziq-ovqat va boshpana bilan ta'minlay olmaydigan bo'lsa, sizni o'zingiz yoqtirmaydigan ishda ishlashga ham majbur qiladi. Aynan "Ego" sizni o'zingiz yoqtirmaydigan odamlar bilan til topishishga majbur qiladi. Chunki real hayot sizdan "id"ning talablarini qondirishning mos usuli sifatida bunday xatti-harakatni talab qilayotgan bo'ladi. "Ego"ning nazorat qilish va kechiktirish funksiyasi doimo ro'yobga chiqishi (umuman, ishlashi) zarur. Aks holda, "id" impulsleri ratsional "ego"ni yengib, uni mag'lub etishi mumkin. Freyd – o'zimizni "id" tomonidan boshqarilishdan himoya qilishimiz kerakligini ta'kidlab, "ego"ni himoya qilish uchun turli xil ongsizlik jarayoni (bilan bog'liq) mexanizmlarni taklif qildi. Hozircha bizda – "id" ni tiyib turishga harakat qiladigan va shu bilan birga unga xizmat etuvchi va "id" impulsalarining keskinligini yumshatish uchun voqe'likni idrok etadigan hamda manipulatsiya qiluvchi jangdagi shaxsning surati⁴ bor. Inson shaxsi doimiy ravishda yo'l-yo'riq ko'rsatishga urinuvchi instektiv biologik kuchlar ta'sirida bo'lib, u "id" va reallikning talab (va istak)larini muvozanatlashga harakat qiladi. Har ikkala talab ham doimiy e'tiborni talab etadi.

"**Superego**" ham ongsiz substansiya, lekin rivojlanish jarayonida orttirilgan xulq-atvor normalari, "tabu"lar⁵ va (qonun-)qoidalardan iborat. Bir jihatni doimo yodda tutishimiz zarur: "Id" va "ego" – Freydning inson tabiatи haqidagi to'liq tasavvurini aks ettir(a ol)maydi.

⁴ Yoki *tasavvuri* bor.

⁵ Ya'ni, *taqiqilar*.

Yana bir uchinchi kuchlar to‘plami ham bor. Bu ham bo‘lsa – biz bolaligimizda ega bo‘ladigan to‘g‘ri va noto‘gri (narsa)lar haqidagi fikrlarimizni (o‘z ichiga qamrovchi) kuchli va juda katta anglanilmagan qoidalar va e’tiqodlar to‘plamidir. Kundalik tilda biz bu ichki axloqni – vijdon, deb ataymiz. Freyd uni – “superego”, deb atagan. Dastlab, ota-onalarimiz tomonidan o‘rnatilgan xulq-atvor qoidalaridan iborat bo‘lgan shaxsning bu axloqiy tomonining asosi – odatda 5-6 yoshda o‘rganiladi. Maqtov, jazo va namuna orqali bolalar – ota-onalari qaysi xatti-harakatlarni yaxshi yoki yomon deb bilishlarini tushunib oladilar. Bolalar jazolanadigan xatti-harakatlar “superego”ning qismlaridan biri bo‘lgan – **vijdonni** tashkil qildi. Superegoning ikkinchi qismi – “**ego-ideal**” (ideal-men) bo‘lib, u – bolalar maqtovga sazovor bo‘lgan yaxshi yoki to‘g‘ri xatti-harakatlardan iborat.

Shunday qilib, bolalar ota-onalari tomonidan qabul qilinishi yoki rad etilishga loyiq bo‘lgan qoidalar to‘plamini o‘rganadilar. Vaqt o‘tishi bilan bolalar bu ta’limotlarni analiz qila boshlaydi hamda mukofot va jazolar o‘z-o‘zidan boshqariladi. Ota-onsa nazorati o‘z-o‘zini analiz (ya’ni, nazorat) qilish bilan almashtiriladi. Biz o‘zimizni hech bo‘lmaganda qisman bu anglanilmagan axloqiy me’yorlarga muvofiq tutamiz. Ushbu o‘z-o‘zini analiz qilish natijasida – biz ushbu axloq kodeksiga zid keladigan har qanday harakatni qilganimizda (yoki hatto uni ro‘yobga chiqarish haqida o‘ylaganimizda ham) aybdorlik yoki uyat hissini tuyamiz. Axloqning hakami sifatida “superego” axloqiy mukammallikka intilishda o‘ta beshafqat (va shiddatli)dir. Shiddatlilik, mantiqsizlik va itoatkorlikni talab qilish nuqtai nazaridan u “id”ga kabi emas. Uning maqsadi “ego” kabi “id”ning zavqu shavqga doir talablarini kechiktirish emas, balki ularni – ayniqsa jinsiy aloqa va tajovuz bilan bog‘liq bo‘lgan istaklarni – butunlay to‘sish (qarshilik qilish)dir. “Superego” (“id” kabi) na zavq olishga va (“ego” kabi) na real maqsadlarga erishishga intilmaydi. U faqatgina axloqiy barkamollikka intiladi, xolos. “Id” zavq olish (qoniqish hosil qilish) uchun bosim o‘tkazadi, “ego” uni kechiktirishga harakat qiladi ammo “superego” esa hamma narsadan avvalo axloq (me’yorlariga rioya etish)ni talab qiladi. Id kabi, superego ham o‘z talablari bilan murosaga yo‘l qo‘ymaydi.

“Ego” bu doimiy va qarama-qarshi kuchlarning bosimi ostida – o‘rtada qoladi. Shunday qilib, “ego” uchinchi xo‘jayinga ega. Ya’ni bu – “superego” sanaladi. Freydning so‘zlariga ko‘ra, “faqir” **Ego** uch tomondan bosim ostida va uchta xavf bilan tahdid qilinadi. (Bular:) “id”, “reallik” va “superego”. “Ego” juda og‘ir zo‘riqishga uchrasa – bu kelishmovchilikning muqarrar natijasi tashvish (yoki xavotir)ning rivojlanishi bo‘ladi. Biz allaqachon “tashvish”⁶ so‘zi nimani anglatishini va xavotirlanganimizda esa nimani his qilishimiz haqida umumiy tasavvurga egamiz. Bilamizki, tashvish qo‘rquvdan unchilik farq qilmaydi, ba’zida biz nimadan qo‘rquyotganimizni bilmasligimiz ham mumkin. Freyd “tashvish”ni “ma’nosiz qo‘rquv” deb ta’riflagan. Ko‘pincha biz uning manbasini va uni keltirib chiqargan aniq obyektni ko‘rsata olmaymiz. Freyd “tashvish” (yoki “xavotir”)ni o‘zining shaxs nazariyasining muhim qismiga aylantirdi va bu nevrotik va psixotik xatti-harakatlarning rivojlanishi uchun asos ekanligini ta’kidladi. U barcha tashvishlarning prototipi (asl namunasi) tug‘ilish travmasi ekanligi va bu tushunchani esa shogirdi Otto Rank tomonidan

⁶ Yoki “xavotir”.

ishlab chiqilganligini aytdi. Ona qornidagi homila eng barqaror va xavfsiz olamda bo‘lib, unda har qanday ehtiyoj kechiktirmasdan qondiriladi. Ammo tug‘ilish paytida tana o‘zini (go‘yoki) dushman muhitda topadi. To‘satdan u reallikga moslashishni boshlashi kerak, chunki uning instinctiv talablari har doim ham darhol qondirilmaydi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning (yetuk bo‘lmagan va yomon tayyorgarlikka ega) asab tizimi turli xil hissiy stimullar bilan shikastlantiriladi. Shunday qilib, chaqaloq katta motorli harakatlar bilan shug‘ullanadi, nafas olish kuchayadi, yurak urishi tezlashadi. Bu tug‘ilish travmasi, o‘zining zo‘riqishi va “id” instinctlarini qoniqtirmaslik qo‘rquvi bilan bizning birinchi tashvish tajribamizdir. Bu keljakda har qanday tahdidiga duch kelganimizda paydo bo‘ladigan reaksiyalar va his-tuyg‘ular namunasini yaratadi.

Agar biz “xavotir”ga dosh bera olmasak, tashvishga tushib qoladigan bo‘lsa(k), tashvish “travma” deb ataladi. Freyd bu bilan inson yoshidan qat’i nazar, go‘daklik davridagidek nochor ahvolga tushib qolishini nazarda tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Theories of personality” (eighth edition). Duane P. Schultz and Sydney Ellen Schultz. COPYRIGHT © 2017 Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Thomson LearningTM is a trademark used herein under license.
2. Адлер Альфред. Наука о характерах. Понять природу человека. - М.: Академический проект, 2014. - 256 с.
3. Айзенк Ганс. Структура личности. - М.: КСП+, Ювента, 1999. – 464 с.
4. Асеев В.Г. Личность и значимость побуждений. - М.: ИП РАН, 1993. – 224 с.
5. Асмолов А.Г. Психология личности. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1990. – 336 с.
6. Асмолов А.Г. Культурно-историческая психология и конструирование миров. - М.: Ин-т практической психол.; - Воронеж: МОДЭК, 1996 а. -768 с.
7. Большая советская энциклопедия. в 30-ти т.. – 3-е изд. – М.: Совет. энцикл., 1969-1986. ил., карт. [Электронный ресурс]. Режим доступа: [хттп://www.бюоксите.ру/файлтекст/1/001/008/106/912.htm](http://www.бюоксите.ру/файлтекст/1/001/008/106/912.htm) (дата обращения: 03.03.2022).
8. Братусь Б.С. Психология. Нравственность. Культура. - М.: Менеджер; Роспедагентство, 1994. - 60 с.
9. Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 6. Научное наследство / Под ред. М. Г. Ярошевского.- М.: Педагогика, 1984. - 400 с.
10. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука. Избранные психологические труды. - М.: Ин-т практической психол.; - Воронеж: МОДЭК, 1998. - 480 с.
11. Донцов А.И. К вопросу о механизмах формирования личности // Психологические исследования. Вып. 5. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1975. - С. 31-41.